



МУҒАЛЛИМ ХӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илий-методикалық журнал

№ 1-3 2023



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

МАЗМУН

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Айтбаев Д. Т. Асимметрик дуализм коммуникациянинг семиотик тамойили сифатида
Yuldasheva Sh.Sh. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'zbek tilini qardosh tillardagi guruhlarda o'qitishning o'ziga xosliklari va tajribalar
Arifjanova O.Q. Ingliz tilini o'qitishdagi yangi texnikalar: o`qish(reading) va eshitib tushunish(listening) misolida
Нематова С. Глубокие корни развития литератур
Мирзорахимов О.К. Для чего предназначен словарь

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Yusupova M. A., Baxtiyorova S. E. Pedagog tarjimonlarni tayyorlash zaruriyati
Jabborova O. M., Baxtiyorova S. E. Bo'lajak ingliz tili pedagoglarini xalqaro ta'lim dasturlari bilan tanishtirish yo'nalishlari
Narimbetova Z.A. Umumiyoq o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida o'quvchilarning geometrik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida
Umarova Z.A. Umumiyoq o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarning turlari
Umarova Z.A., Nazirjonova M. B. Umumta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan psixologik xarakterdagi pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning amaliy shakllari
Xusnetdinov U.I. Qoraqalpog'iston Respublikasi talaba yoshlarida ekologik madaniyatni shakllantirish g'oyasining rivojlantirish yo'llari
Qarshiboyeva X.K. TALIS xalqaro baholash dasturining ahamiyati va afzalliliklari
Beketov N.A. Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni boshqarish
Beketov N.A. Umumiyoq o'rta ta'lim maktablarining tarbiya funksiyalari
Quzmanova G.B., Davlatova M.A. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etishda TIMSS hamda PISA xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi
Kuchkinov A.Yu., Tilovova S.B. EKO-STEAM ta'lim kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo yondashuv
Qorajonova B.T. Maktablarda psixologik maslahat tashkil etishning samarali shakl va uslublari
Абдурахмонова У.Н. Педагогик фаолиятда инновациялардан самарали фойдаланишни ташкил этиш йўллари
Turayeva G. E. Pedagogik jarayonni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyat va afzalliliklari
Xurramova M.A. Ta'lim mazmunini shakllantirishda germenevtik yondashuv imkoniyatlari
Achilov T.S. Vatanparvarlik tarbiyasi – mакtab o'quvchilarining qiymat-semantik kompetentsiyasini shakllantirishning muhim elementi sifatida
Abduxalilova D. Madaniyatlararo muloqot yo'nalishida "ijtimoiy-madaniy kompetentlik" tushunchasi
Мусурманкулова М.Н. Изучение сопоставительно-диаектологической компетенции в современной педагогике
Шамиева О.Р. Роль дисфункциональных родителей в эмоциональном благополучии ребёнка
Ochilov E. Yu. Role of ai-powered chatbots in increasing efficiency of learning processes

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУҮХҮЙЛҮҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Sayliyeva M.M. Jamiyat va shax rivojlantirishda milliy g‘oya tamoyillari va mazmuni

Kenjayeva M.Sh. Milliy qadriyat tushunchasining mazmun va mohiyat

Xujaev M. I., Эсанова К.И. Махмудхўжа Беҳбудий жадид матуботи етакчиси

Axmadaliev M .Sh. Milliy uyg‘onish davri poetikasida yetakchi g‘oya va obrazlar

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Imomberdiyev S.S. Matematika darslarida ekologik komponentdan foydalanishning ahamiyati

Қунназаров А.Қ. Информатика фанидан мултимедиали электрон ўқув қўлланма яратиш ва фойдаланиш методикаси

Tursinboyeva Z.U., Ismoilova Z.T., Abdullayeva D.A. Differensiallarning taqribiy hisoblashlarga tatbig‘i

Tursinboyeva Z.U., Ismoilova Z.T., Ravshanova R.M. Tarmoqlararo balans munosabatlarining iqtisodiy masalalarga tadbiqlari

Shomurodov N.A. Taqribiy hisoblashlarda differensial hisob va darajali qatordan foydalanish

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ

Eshchanova G. O., Durdiyeva M .O. Maktabgacha yoshdagি bolalar nutqini rivojlantirishda ijodiy-kreativ faolligini shakllantirish usullari

Ozodova B.Raqamli texnologiya-MTT da zamonaviy zaruriyat

Eshchanova G .O., Shamuratova S.Q. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishga kompetensiyaviy yondashuv

Xo‘jamberdiyeva Sh. Maktabgacha yoshdagи bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zaruriyati

Eshchanova G.O., Egamberdiyeva M. K. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilishga o‘rgatish orqali nutq, muloqot kompetensiyalarini shakllantirish usullari
Nuradilova A.D. Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitishda noan’anaviy dars usulining samarali natijalari

Jabborova O.M. Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va didaktikasining diagnostika masalalari

Mardonov Sh .Q. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi va samaradorligi diagnostikasi

Eshmanova N. N. Boshlang‘ich sinflarda bayon va insho yozish klaster metodikasi mazmuni

Qarshiboyeva X.K., Muminov Z.Sh. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari

Jabborova O.M., Abdujalilova M.M. Maktabgacha yoshdagи bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish metodikasi

Tashpulatova D.M. Boshlang‘ich ta’limda klaster yondashuv asosida o‘quv fanlarini integratsion o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi

Жансаитова Ж.Б., Таджибаев И.У. Бастауыш сынып оқушыларына арналған психологиялық-педагогикалық диагностика

Eshmanova N.N., Rahmonova M. Oilada bola tarbiyasida o‘zaro munosabatlar tizimi pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillari

Tojiboyeva G.R. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda “Rivoj” loyihasiga asoslangan innovatsion maktab imkoniyatlari

Karimjonov A. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” asosida boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish davr talabi

Matupayeva Sh.Z. Inklyuziv ta’limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy ahamiyati

Ochilov F.I. Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish imkoniyatlari

Jabborova O., Saparbayeva D. Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi diagnostikasi

Sultanov T.M. Ilk boshlang‘ich ta’lim pedagogikasining muhim jihatlari va izohi

Maxmudova D.M., Mirxalilova N.A. Funksional savodxonlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari

Ochilov F.I., Ashurova F.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy bilimlar hamda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish usullari

Hikmatov I.M., Ochilov F.I. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari

Rustamova N.X. “Boshlang‘ich ta’limda yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” fanining ahamiyati

Usmonova Q.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tankidiy fiklashni shakllantirishda pedagogik – psixologik integratsiya va uzuksizlik

Karshiyeva D.E. Boshlangich ta’lim sotsiologiyasi mazmuni

Abdurashidov A. Maktabgacha ta’lim pedagogikasining dolzarb muammolari

Назирова Г.М. Ривожлантирувчи марказ:Халқ қўшиқлари ва ўйинлари болаларда миллий ғурур ҳиссини тарбиялаш воситаси сифатида

Эсонова М. А. Практическая деятельность детей в дошкольном образовательном учреждении

Арсланова Г.Дж., Панкина М.С. Воспитание национальных и общечеловеческих ценностей у младших школьников

Арсланова Г.Дж., Сытина Н.В. Инклюзивное обучение в начальном образовании

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ

Alimardonov A.N. “Bolalar sportini rivojlantirishda milliy o‘yinlarining ahamiyati”

Alimov Q.A., Daminov I.A. Sog‘lom turmush tarzinining tarixiy rivojlanishi va uning mohiyati

Toshbayev X.Y. Maktabdan tashqari jismoniy tarbiya va sport ishlarini amalga oshirishning takomillashtirish yo‘llari

Jo`rayeva S. B. Kurashchi qizlarlarning trenirovka jarayonida texnik tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llari

Mengliboyeva O.A. Халқ педагогикасида болаларнинг ўйини ва унинг тарбиявий аҳамияти

Toshboev B.SH. Sport tibbiyotida qo’llaniladigan tibbiy nazorat usullari

Alimov Q.A., Xo`jayev O‘X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chaqqonlik sifatlarini tarbiyalashda muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi

Xo`jayev A.Q. Kuchli tayyorgarlik vositalaridan foydalangan holda yosh erkin kurashchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi

Payg’amova S. Qisqa masofaga yuguruvchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalaştirish

G`afforova D.B. Gандbolchilarning hujum va himoyadagi tehnik usullarini rivojlantirish metodikasi

Худайберганов О.К. Педагогические аспекты проблемы ценностного отношения к физической подготовке у курсантов и слушателей высших учебных заведений структуры МВД Республики Узбекистан

Ашурев Б.Ш. Стритбол в Республике Узбекистан

MADANIYATLARARO MULOQOT YO'NALISHIDA "IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIK" TUSHUNCHASI

Abduxalilova D.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Turizm fakulteti Nemis tili kafedrasи

Tayanch so`zlar: ijtimoiy-madaniy kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, innovatsion ta`lim, kompetentlik.

Ключевые слова: социокультурная компетенция, культурная коммуникация, инновационное образование, компетентность.

Key words: socio-cultural competence, cultural communication, innovative education, competence.

Bugungi kunda chet tillarini o`rganish va o`rgatishga bo`lgan e`tibor va talab kundankunga oshib bormoqda. Pedagogik nuqtai nazardan ta`lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri - o`qituvchi shaxsida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish hisoblanadi. Nafaqat o`qituvchilar, balki o`qituvchi bo`lish uchun tahsil olayotgan talaba yoshlarda ham kasbiy mahorat mezonlari oshirish, innovatsion ta`lim muhitini yaratish, individual ta`lim tizimini isloh qilish, xalqaro ta`lim standardlarining joriy qilinishiga alohida e`tibor qaratilmoqda. Bundan ko`zlangan asosiy maqsad talaba yoshlarning ijtimoiy madaniy salohiyatini rivojlantirish, muloqot madaniyatini oshirish, jahonning har qanday davlati yoshlari bilan tillasha oladigan, dunyoqarashi keng, fikrash tarzi teran, kommunikativ kompetensiyaga ega bo`lgan, salohiyatli hamda kuchli mutaxasis qilib yetishtirish hisoblanadi.

“Kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalari ta`limdagи kompetentli yondoshuvning asosiy tushunchalari hisoblanadi. Kompetensiya tushunchasi adabiyotlarda umumiy ta`rifga ega bo`lmagan murakkab, ko`pkomponentli va fanlararo tushuniladigan tushuncha hisoblanadi. [1, 102 b.]. Ijtimoiy nuqtayi nazardan kompetentlik “kutilmagan vaziyatlar, noan`anaviy holatlarda mutaxassisning o`zini qanday tutishi, hamkasblari bilan o`zaro munosabatlarda o`zini qanday tutishi, murakkab vazifalarni bajarishda, nizoli holatlarda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kompetensiya tushunchasi inglizcha “competence” so`zidan olingan bo`lib, lug’aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. [2, 130 b.]. Mazmunan esa har qanday faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorini namoyon eta olish, har qanday vaziyatga moslashib keta olishni nazarda tutadi.

Tadqiqotchilar kompetensiya tushunchasini quyidagicha ta`riflashadi:

- faol hayot tarzi va professional mavqega ega bo`lish, o`z farovonligi va jamiyatning rivoji uchun harakat qilish, o`z-o`zini anglash va baholash qobiliyatini rivojlantirish;
- ijtimoiy va kasbiy jihatdan o`z-o`zini boshqarish va o`z-o`zini anglashga e`tibor qaratish;
- ochiq axborot hamjamiyatida, globallashgan dunyoda o`z o`rniga ega bo`lish;
- xorijiy tilli suhbatdosh bilan o`zaro bir-birini tushunishga intilgan holda bag`rikenglik tamoyili asosida muloqot olib borish qobiliyatini o`stirish;
- umumiy va huquqiy madaniyatning zamonaviy darajasiga erishish nazarda tutiladi deb yozadi A.V.Andreev o`zining 2005 yilda yozilgan “Bilim yoki salohiyat”(Знание или компетенция?) deb nomlangan asarida[3, 7 b.].

Hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biri bu kompetensiyaga asoslangan shaxsni boshqarish yondashuvi hisoblanadi. David Mc Clelland nomini esa aynan ushbu yondashuvning asoschisi sifatida qayd etish zarur [3, 145 b.]. U ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarining psixologik aspektlarini o`rgangan bo`lib, mutaxassis motivatsiyasini ishlab

chiqarish jarayoni va maqsadlari bilan uzviy birlashtirish nazariyasining asoschisi sifatida taniladi.

Tarixiy nuqtayi nazardan ta'lim tizimiga “kompetentlik” tushunchasining kirib kelishi va uning ahamiyatining qabul qilinishi bir nechta bosqichlardan iborat. Bular quyidagilar:

Ilk bosqich 1960–1970 yillar. Ushbu vaqt mobaynida ilmiy doiralar va muomalaga «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari kirib keldi va ularning amal qilish qoidalari, qo'llanilish xususiyatlari belgilab qo'yildi. Ilk bor 1965 yilda N.Xomskiy “tomonidan kompetensiya” tushunchasi ishlataladi. Bu so'zning semantik chegarasi bugungi kunda juda keng bo'lib, aslida bu so'z “biror bir narsaga mos kelish”, “kelishuvchanlik”, “kelishuv”, “mos bo'lish” ma'nolarini anglatadi. Hozirgi kunda esa mazkur so'z ko'proq “faoliyat olib borishning universal, ya'ni hamma uchun mos bo'lgan umumiy xususiyatlari va talablari majmuuni” anglatadi.

Ikkinci bosqichda (1970–1990 yillar) “kompetensiya” tushunchasining qo'llanilish doirasi keskin o'sadi, mazkur so'z maxsus tushunchaga aylanadi va biror bir sohaga oid xususiyatlar jamlanmasini anglata boshlaydi hamda lingvistik nazariyai, menejment, kommunikatsiyalarni tashkil qilishda qo'llaniladi. J.Raven o'ziga ilmiy vazifa qilib, zamonaviy jamiyat nuqtai nazaridan mutaxassislik kompetensiyasi nimaga teng degan masalani qo'yadi va effektivlikni ta'minlovchi kompetensiyaning 37 ta komponentini ajratib, ko'rsatib beradi va ularni “motivatsion qobiliyat” deb ta'kidlaydi [4,27b].

Keyingi bosqichda (1990–2001 yillar) butun dunyo, MDH da, xususan Rossiyada “Boloniya deklaratsiyasi” ijro va ta'lim taraqqiyoti uchun qabul qilindi, ta'lim islohotlarining maqsadlaridan biri mutaxassisning kvalimetrik ko'rsatkichlarining bosh xususiyati qilib aynan “kasbiy kompetentlik” masalasi qo'yila boshladи. Bu davrda Rossiyaning qator olimlari, xususan A.K.Markova [5], Ye. F. Zeera, A. V. Xutorskiy va boshqalar kasbiy kompetentlik tushunchasini psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan ishlab chiqdilar.

O`zbekistonda ham bu borada bir qancha pedagog olimlar izlanishlar olib bormoqda. Bulardan M.B.Urazova, K.D.Risqulova, A.Abduqodirov, R.H.Jo`rayev, Z.K.Ismoilova, E.R.Yuzlikayeva kabi olimlar kompetensiya tushunchasining ta'lim tizidagi o'rni, uning o`qituvchi shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati, ushbu tushunchaning asl mazmun mohiyati kabi tamoyillarini o`z ilmiy ishlarida aks ettirishgan.

“Kompetensiya” u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lган kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi. Kompetentlik esa — shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahorati bilan belgilanadi” deb takidlaydi K.Risqulova.

Kompetensiya tushunchasi umumiyligi ma`nosini bildirsa, kompetent tushunchasi ma'lum bir shaxsning o'zигагина xoslikni bildiradi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni ko'rib chiqish bat afsil bayon qilish, aniqlashtirish va bu tarkibiy qismlarni xarakterlashdan o'tish muhim ahamiyat kasb etishini va ularning komponentlari tahlilini ko`plab olimlar keltirib o'tishadi. (I.L. Bim, M.A. Bogatyryova, E.M. Vereshchagin, G.V. Vorobiov, N.D. Galskova, G.V. Elizarova, N.A. Ignatenko, V.G. Kostomarov, N.G. Muravyeva, V.V. Safanova, V.P. Sysoev, G.D. To'makhin va boshqalar). Bular quyidagi komponentlardan iborat:

- ijtimoiy kompetensiyaning lingvistik xususiyatlari, turli avlod vakillari, jinslar, ijtimoiy guruhlar, dialektlar: nutq stereotiplari, situatsion klischelar, kommunikativ klischelar, nutq odobining formulalari, nutq xulq-atvorining modellari (sotsiolingvistik xususiyatning ma'lumoti);

- ijtimoiy-madaniy, tarixiy-madaniy, etno-madaniy kelib chiqishi, o'rganilgan til aholisining urf-odatlari, urf-odatlari, milliy xarakterga oid ma'lumotlar, kundalik turmushning o'ziga xos xususiyatlari, aholi farovonligi darajasi, ushbu jamiyat a'zolari uchun odatiy bo'lган asosiy qadriyatlar va baholashlar, xulq-atvor normalari (madaniy tabiat to'g'risidagi ma'lumotlar);
- ijtimoiy-madaniy semantika (lingvokultura) va ularni madaniyatlararo muloqot holatlarida qo'llay olish qobiliyatiga ega leksik birliklar: ekvivalent bo'lмаган so'zlar, fon so'z birikmaları, realliklar (leksik va madaniy tabiat haqidagi ma'lumotlar).

Talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyanining rivojlanishining bir qancha parametrlari mavjud bo`lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) Ijtimoiy-madaniy kompetensiya ham ona tili, ham chet tillari milliy madaniyatning bir qismi va asosi, uning turli boyliklarini joriy etishning eng muhim vositasidir.
- 2) Muayyan tilni o'rganish milliy madaniyatni o'rganish demakdir.
- 3) Insonning nutqi, tilga munosabati shaxsning ma'naviy va axloqiy madaniyatidan darak beradi.
- 4) muloqot vositasi sifatida bilish nutq madaniyatini, nutq madaniyatini o'zlashtirishni anglatadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani xarakterlovchi madaniy yoki ma'lum bir mamlakatga xos ma'lumotlar, o'z navbatida, ma'lum qismlardan iborat kompleks bir butunlikdir. Olimlar bu ma'lumotlarni tarkibiy qismlar deb ham atashadi. Ushbu ma'lumotlarga egalik qilish madaniyatlararo muloqot istiqbollarini amalga oshirish jarayonida juda muhim. Madaniy kompetensiyaning shunday tarkibiy qismlari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) "Ko'rib chiqilayotgan materialga kiritilgan madaniy ma'lumotlarni tushunish, uning chuqur ma'nolarini tushunish". Bunday bilimlarni o'qitish o'quvchilarning tushunishini ta'minlashni ko'zda tutadi:
 - "Xalqning ruhi, milliy xarakteri, tili, madaniyati, mentaliteti, qadriyatlar, ma'naviyati, madaniyatlar to'qnashushi" kabi gumanitar fanlarga tegishli asosiy tushunchalarning ma'nolari;
 - "Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar: o`zbek tili madaniyat xazinasi va to'plovchisi, madaniyat va uning natijasi, shart va madaniyatni uzatish vositasidir";
 - til birliklarining madaniy ma'nolari, ularning ma'nosи, hissiy-obrazli tarkibi, so'zlarning to'plovchi xossasi;
 - milliy madaniyat va boshqa madaniyatlar o'rtasidagi farqlar.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikka asoslangan yondashuvning maqsadi zamonaviy ta'lim nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, mutaxassisning nazariy bilimlari va uni amaliy qo'llash o'rtasidagi uзilishni yengishga intilishdir.

Madaniyatlararo kommunikativ kompetentlik doirasida ijtimoiy-madaniy kompetentlikning mazmuni /tarkibiy qismlari/tarkibiy qismlari to'g'risida keltirilgan ma'lumotlar "ijtimoiy-madaniy kompetentlik" tushunchasiga nisbatan turli nuqtai nazarlarni aks ettiruvchi quyidagi umumlashmalarni amalga oshirishga imkon beradi.

- 1) Ijtimoiy-madaniy kompetentlik – bu bir butunlik bo'lib, unda ijtimoiy-madaniy bilimlar o'zaro bog'liq bo'lib, tegishli lingvistik material bilan rasmiylashtirilgan va ushbu aloqaning ma'lum bir tajribasiga ega bo'lган kommunikantlarning shaxsiy muloqoti jarayonida faoliyat ko'rsatishidir.
- 2) Ijtimoiy-madaniy kompetentlik - strategik, faoliyat, kognitiv, tub va affektiv kabi tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro aloqadorligi.
- 3) Ijtimoiy-madaniy kompetentlik uning tuzilishida sotsiolingvistik, madaniy tadqiqotlar va lingvo-madaniy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

Bunday turli yondashuvlar va nuqtai nazarlar ma'lum metodologik muammolarni hal qilishda spetsifikatsiyani talab qiladi. O'rganilayotgan muammoning bu jihat - xususan, ijtimoiy-madaniy kompetensiya tarkibiy qismlarining xususiyatlarini batafsil ko'rib chiqish - ushbu dissertatsiyaning keyingi qismiga bag'ishlangan.

Adabiyotlar:

1. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lif samaradorligi omili. Monografiya. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 184 b.
2. Карапулов, Ю. Н. Русский язык и языковая личность / Ю. Н. Карапулов. – М.: КомКнига, 2006. –261 с.
3. Андреев, А. В. Знание или компетенция?/ А. В. Андреев // Высшее образование в России. – 2005. – № 5 – С. 3-11.
4. Елизарова, Г. В. О природе социокультурной компетенции [Текст] // Слово, предложение и текст как интерпретирующие системы. Studia Linguistica 8. СПб.: Тригон. 1998. С. 25–31.
5. Бердиева Х. Б. Развитие социокультурной компетентности у будущих учителей начальных классов //Педагогическое образование и наука. – 2020. – №. 1. – С. 128-131.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada madaniyatlararo muloqot yo'nalishidagi "ijtimoiy-madaniy kompetentlik" tushunchasiga umumiylar ta'rif beriladi. Oliy ta'lif muassasi talabalarida, ularning ta'lif jarayonida qatnashishida, ularning ijtimoy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish xususida fikr yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статьедается общее определение понятия «социокультурная компетенция» в области межкультурного диалога. Рассматриваются студенты высших учебных заведений, их участие в образовании, развитие их нуждающихся и культурных компетенций.

SUMMARY

This article is devoted a general definition of the concept of "socio-cultural competence" in the field of intercultural dialogue. Students of higher educational institutions, their participation in education, the development of their needy and cultural competencies are considered.